Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	



TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI

Ashurov Abdulaziz Rustamovich

Toshkent shahridagi Kimyo xalqaro universiteti, PhD, v.b. dotsent

E-mail: laziz0211@yahoo.com

ORCID: 0000-0002-0852-5624

Olimov Anvarjon Atamirzayevich

Toshkent shahridagi Kimyo xalqaro universiteti, v.b. dotsent

E-mail: olanat8@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6874-1986

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahridagi shaharsozlik siyosati va ekologik mas'uliyat o'rtasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot Telegram kanallari, ommaviy axborot vositalari va bloglardagi ijtimoiy chiqishlar asosida sifatli kontent tahlili hamda siyosiy diskurs tahlili metodologiyalaridan foydalangan holda olib borildi. Tadqiqot natijalari rasmiy diskurs va quruvchilar tomonidan ekologik muammolarni oqlovchi strategiyalarning mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining ekologik faollik shakllari hamda axborot vositalari orqali qarshilik bildirish tendensiyalari kuchayib borayotganini aniqladi. Maqola shaharni rivojlantirish jarayonida ekologik etikani va fuqarolik ishtirokini inobatga olgan yondashuv zarurligini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: shaharsozlik, ekologik mas'uliyat, daraxtlar, diskurs tahlili, kontent tahlili, kompensatsiya, fuqarolik faolligi.

Abstract. This article examines the contradictions between urban development policies and environmental responsibility in Tashkent. The study applies qualitative content analysis and political discourse analysis methods, drawing on materials from Telegram channels, mass media, and blogs. The findings reveal the presence of strategies within official discourse and among construction companies aimed at justifying environmental issues. At the same time, the study identifies the growing forms of civic environmental activism and increasing tendencies of resistance expressed through media platforms. The article highlights the necessity of an urban development approach that integrates environmental ethics and civic participation.

Key words: urban planning, environmental responsibility, tree cutting, discourse analysis, content analysis, compensation, civic activism.

Аннотация. В данной статье анализируются противоречия между градостроительной политикой и экологической ответственностью в городе Ташкент. Исследование проведено с использованием качественного контент-анализа и методов политического дискурса-анализа на основе материалов из Telegram-каналов, средств массовой информации и блогов. Результаты исследования показывают наличие стратегий оправдания экологических проблем в официальном дискурсе и в риторике строительных компаний. Вместе с тем выявляется усиление форм экологической активности гражданского общества и тенденции к выражению протеста через средства массовой информации. Статья демонстрирует необходимость подхода к развитию города, учитывающего экологическую этику и гражданское участие.

Ключевые слова: градостроительство, экологическая ответственность, вырубка деревьев, дискурс-анализ, контент-анализ, компенсация, гражданская активность.

KIRISH

So'nggi yillarda Toshkent shahrida shaharsozlik faoliyatining jadallashuvi bilan birga ekologik barqarorlikka oid xavotirlar ham sezilarli darajada ortmoqda. Yangi yo'llar, ko'p qavatli binolar va tijorat loyihalarining



barpo etilishi poytaxtning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, bu jarayonlar ayrim hollarda yashil hududlarning qisqarishi, daraxtlarning kesilishi va havo sifatining yomonlashuvi kabi ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, 2023–2025-yillar oralig'ida Toshkent shahrida daraxtlarning kesilishi bilan bog'liq ko'plab noroziliklar yuzaga kelib, bu mavzu ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi. Mazkur holatlar ekologik mas'uliyat va urbanistik rivojlanish o'rtasidagi nozik muvozanatni yana bir bor dolzarb masalaga aylantirdi.

Global miqyosda esa shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha ekologik tamoyillar asosida rejalashtirish eng muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan (UN-Habitat, 2020)¹. Biroq O'zbekiston sharoitida, ayniqsa Toshkent tajribasida, shaharsozlik siyosatining asosiy ishtirokchilari — qurilish kompaniyalari, mahalliy hokimiyat, ekologik faollar va fuqarolik jamiyati — o'rtasida ekologik mas'uliyatga oid yondashuvlarda sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda. Bu farqlar turli diskurslar, ijtimoiy noroziliklar va qarama-qarshi strategiyalar orqali namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqola Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan shaharsozlik siyosatini va unga nisbatan shakllanayotgan ekologik diskurslarni tahlil qilishga qaratilgan. Tahlil jarayonida Telegram kanallaridagi ijtimoiy muhokamalar, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan xabarlar hamda davlat hokimiyati vakillarining bayonotlari asosiy manba sifatida o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida Braun va Klark (2006)² tomonidan taklif qilingan tematik kodlash hamda Hajer (1995)³ tomonidan ilgari surilgan siyosiy diskurs tahlili yondashuvlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Toshkent shaharsozligida yuzaga kelayotgan ekologik ziddiyatlarni kontseptual darajada tahlil qilish va bu jarayonda faoliyat yuritayotgan aktorlarning pozitsiyalarini ifodalovchi dominant diskurslarni aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaharsozlik va ekologik muvozanat o'rtasidagi ziddiyat global urbanistika sohasidagi eng muhim ilmiy muhokama yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. XX–XXI-asrlarda jadal urbanizatsiya natijasida shaharlar iqtisodiy faollik markazlariga aylangan bo'lsa-da, bu jarayon bir qator ekologik muammolarni keltirib chiqargan (Harvey, 2008⁴; Beatley, 2000⁵). Shu bois “barqaror shahar” konsepsiyasi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida ilgari surilmoqda (UN-Habitat, 2020).

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda shahar ekologiyasi, yashil infratuzilma va fuqarolik ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik alohida ta'kidlanadi (Jennings et al., 2016⁶; Wolch et al., 2014⁷). Ayniqsa, ekologik infratuzilmani qurilish jarayoniga integratsiya qilishga oid ilg'or yondashuvlar shaharlarning iqlim o'zgarishlariga moslashuvchanligini, ijtimoiy adolatni va hayot sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishi isbotlangan (Kabisch et al., 2017⁸).

O'zbekiston sharoitida esa ekologik masalalar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalaridagi norasmiy diskurslar orqali ko'tarilmoqda. Rasmiy shaharsozlik hujjatlarida ekologik omillarni inobatga olishga intilish kuzatilsa-da, amaliyotda bu holat har doim to'liq aks etmaydi. Shuningdek, ayrim hollarda ekologik qonunchilikni aylanib o'tishga oid “ijodkorona” yondashuvlar (masalan, daraxtlarni sun'iy quritish orqali ularni kesishga ruxsat olish) uchraydi. Bunday holatlar ekologik adolat, ishonch va boshqaruv shaffofligi tamoyillarining yanada mustahkamlanishini taqozo etadi.

Ekologik ziddiyatlarni va aktorlararo munosabatlarni tahlil etishda Hajer (1995⁹) tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy diskurs tahlili yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv siyosiy bayonotlarning nafaqat mazmunini, balki kontekstual va legimitizatsion funksiyalarini ham chuqur o'rganish imkonini beradi. Shuningdek,

- 1 UN-Habitat. (2020). World Cities Report 2020: The Value of Sustainable Urbanization. United Nations Human Settlements Programme. <https://unhabitat.org/world-cities-report>
- 2 Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101. <https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa>
- 3 Hajer, M. A. (1995). *The Politics of Environmental Discourse: Ecological Modernization and the Policy Process*. Oxford University Press.
- 4 Harvey, D. (2008). The right to the city. *New Left Review*, 53, 23–40.
- 5 Beatley, T. (2000). *Green Urbanism: Learning from European Cities*. Island Press.
- 6 Jennings, V., Baptiste, A. K., Jelks, N. O., & Skeete, R. (2016). Urban green space and the pursuit of health equity in parts of the United States. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 14(2), 143. <https://doi.org/10.3390/ijerph14020143>
- 7 Wolch, J. R., Byrne, J., & Newell, J. P. (2014). Urban green space, public health, and environmental justice: The challenge of making cities 'just green enough'. *Landscape and Urban Planning*, 125, 234–244. <https://doi.org/10.1016/j.landurbplan.2014.01.017>
- 8 Kabisch, N., Qureshi, S., & Haase, D. (2017). Human–environment interactions in urban green spaces—A systematic review of contemporary issues and prospects for future research. *Environmental Impact Assessment Review*, 50, 25–34. <https://doi.org/10.1016/j.eiar.2014.08.007>
- 9 Yuqorida berilgan.



Braun va Klark (2006)¹⁰ tomonidan taklif etilgan tematik kodlash yondashuvi ommaviy diskurslar orqali ekologik masalalarning ijtimoiy ifodasini tizimli tahlil qilishda samarali metod sifatida qo'llaniladi.

Yevropa va Osiyo shaharlarida, jumladan Seul, Bangkok va Istanbul tajribalari asosida olib borilgan tadqiqotlar ekologik mas'uliyatni qonunchilik, fuqarolik ishtiroki va ochiq urban rejalashtirish tamoyillari orqali kuchaytirish mumkinligini ko'rsatadi (Ryu & Han, 2021¹¹; Eraydin & Tasan-Kok, 2013¹²). Toshkentda esa ekologik faollar, jurnalistlar va ayrim siyosiy yetakchilar tomonidan bildirilayotgan tanqidiy chiqishlar fuqarolik jamiyatining faollashib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, bu jarayonning institutsional ta'siri hali yetarli darajada kuchaymagan bo'lsa-da, ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent shaharsozlik jarayonida shakllanayotgan ekologik diskurslar va ular ortidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'rtasidagi dinamikani chuqur o'rganish, shaharni barqaror rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Toshkent shahrida ekologik muammolar, xususan, daraxtlarning kesilishi va shaharsozlik faoliyatiga nisbatan ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot sifatli kontent tahlili (qualitative content analysis) va siyosiy diskurs tahlili (policy discourse analysis) metodologiyalariga asoslangan holda amalga oshirildi. Mazkur yondashuv ekologik masalalar atrofidagi ijtimoiy diskurslarni nafaqat mazmuniy, balki kontekstual, siyosiy va legitimlashtiruvchi omillar nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi (Hajer, 1995; Braun & Clarke, 2006¹³).

Tahlil uchun 2022–2025-yillar oralig'ida O'zbekistonning ijtimoiy axborot makonida joylashtirilgan 350 dan ortiq ochiq manbalar – Telegram kanallari, mahalliy bloglar, rasmiy ommaviy axborot vositalari, fuqarolik chiqishlari va matbuot xabarlar – tanlab olindi. Ushbu materiallar asosan moratoriy, daraxt kesish, yashil zonalar, qurilish loyihalari va ekologik noroziliklar bilan bog'liq mavzularni qamrab olgan.

Ma'lumotlar dastlab RQDA (R interfeysida sifatli tahlil uchun mo'ljallangan dastur) yordamida kodlandi. Kodlash jarayonida Braun va Clarke (2006) tomonidan taklif etilgan tematik tahlil yondashuvi asos qilib olindi. Har bir post kontekstual ma'nosi, aktorlarning ishtiroki, asosiy diskurs ramkalari va legitimatsiya uslublari bo'yicha tizimli tarzda kodlandi.

Kodlar tarmoqli (clustered) tuzilma asosida shakllantirildi. Ular ekologik diskurslarning asosiy mavzulari – “kompensatsiya”, “ijtimoiy adolat”, “greenwashing”, “qonunchilik zaifligi” kabi yo'nalishlar atrofida guruhlandi. Kodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik radial klaster va Sankey diagrammalari orqali vizual ravishda ifodalandi.

Har bir ekologik bayonotdagi aktor (masalan, quruvchi, amaldor, eko-faol yoki jurnalist) nutqi siyosiy diskurs tahlili asosida tahlil qilindi (Hajer, 1995). Ushbu yondashuv aktorlarning ekologik masalalarni qanday asoslayotgani, ularning ritorik strategiyalari, diskursdagi ta'sir kuchi (dominatsiya yoki periferiklik) hamda ijtimoiy legitimatsiya mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda faqat ochiq, jamoatga taqdim etilgan ma'lumotlar (Telegram postlari, matbuot chiqishlari) tahlil qilindi. Shaxsiy identifikatsiyalanuvchi ma'lumotlardan foydalanilmadi. Bu yondashuv internetdagi ochiq manbalardan foydalanish bo'yicha tadqiqot etikasiga to'liq mos keladi (Townsend & Wallace, 2016)¹⁴.

Tadqiqot sifatli yondashuvga asoslangan bo'lib, natijalar umumlashtirishga emas, balki kontekstual holatni chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tahlil qilingan kontentlarning norasmiy yoki emotsional ohangda ifodalanganligi baholashda ma'lum subyektivlik ehtimolini oshiradi. Biroq bu holat tadqiqotning ilmiy ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha, real ijtimoiy jarayonlarning jonli aksini ifodalaydi hamda ekologik diskurslarni tahlil qilishda muhim empirik manba sifatida xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Tematik kontent tahlili natijalari

Telegram, bloglar va OAVda shaharsozlik hamda ekologik muvozanatga doir 350 dan ortiq post Braun va Clarke (2006) metodologiyasi asosida kodlandi. Kodlash natijasida 1 200 dan ortiq kodlash birligi aniqlanib, ular quyidagi asosiy tematik guruhlarga jamlandi (1-jadval).

¹⁰ Yuqorida berilgan.

¹¹ Ryu, H., & Han, S. S. (2021). Urban ecological transition in South Korea: Policy learning from green infrastructure planning in Seoul. *Cities*, 114, 103186. <https://doi.org/10.1016/j.cities.2021.103186>

¹² Eraydin, A., & Tasan-Kok, T. (2013). Resilience thinking in urban planning. In A. Eraydin & T. Tasan-Kok (Eds.), *Resilience Thinking in Urban Planning* (pp. 1–12). Springer. <https://doi.org/10.1007/978-94-007-5476-8>

¹³ Har ikkisi yuqorida berildi.

¹⁴ Townsend, L., & Wallace, C. (2016). *Social Media Research: A Guide to Ethics*. University of Aberdeen. https://www.gla.ac.uk/media/Media_487729_smxx.pdf



1-jadval. Sifatli kontent tahlilida aniqlangan mavzular va ularning og'irliklari

Mavzu nomi	Tavsifi	Kodlar soni	Umumiy og'irlik
Ekologik kompensatsiya va tanqid	"Kompensatsion ekish", "daraxt banki", "green PR", "ko'zbo'yamachilik"	215	17,90%
Ijtimoiy adolat va norozilik	"Fuqarolik qarshiligi", "jinoyat deb baholash", "jamiyatdagi loqaydlik"	188	15,70%
Siyosiy va iqtisodiy manipulyatsiya	"Davlat ekologik xiyonati", "qonuniylashtirish strategiyalari"	162	13,50%
Qonunchilik va institutsional zaiflik	"Huquqiy bo'shliq", "nazoratning yo'qligi", "yashil infratuzilma yo'qligi"	142	11,80%
Urban estetikasi va diskursiv dixtomiya	"Estetik sabablar", "shahar imidji", "yashil dekor"	128	10,70%
Ekofaollik va fuqarolik pozitsiyasi	"Ekologik harakat", "yashil kurash", "fuqarolik monitoringi"	106	8,80%
Korrupsiya va resurslar nazorati	"Ruxsatlar bozori", "strategik da'vo (SLAPP)", "tanish-bilish tizimi"	93	7,70%

4.2. Siyosiy diskurs tahlili

Har bir aktorning ekologik masalaga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Ushbu tahlilda diskurs og'irligi indeksi (DOI) va legitimatsiya strategiyalari asosida quyidagi natijalar olindi (2-jadval).

2-jadval. Turli aktyorlarning ekologik masalalardagi diskursiv strategiyalari

Aktyor turi	Dominant kodlar	Diskurs og'irligi	Legitimatsiya usullari
Quruvchilar	"Qonuniy ruxsat", "kompensatsiya", "fuqarolikni chalg'itish"	0,83	Texnik zarurat, qonuniy ruxsat, yashil PR
Amaldorlar	"Davlat ekologik burchi", "institutsional zaiflik", "normativ muhofaza"	0,68	Rasmiy bayonot, xalqaro normalarga tayanish
Eko-faollar	"Ekologik jinoyat", "greenwashing", "haqiqiy yashil harakat"	0,74	Axloqiy diskurs, ijtimoiy adolat, shaffoflik talabi
Blogger/jurnalistlar	"Shaharni himoya qilish", "ijtimoiy mas'uliyat", "ekofaollik"	0,62	Axborot tarqatish, alternativ pozitsiyani ilgari surish
Fuqarolar	"Shaxsiy ekologik ranjish", "ijtimoiy xavf", "qonunsizlikdan charchoq"	0,55	Emotsional ekspressiya, individual guvohliklar

Izoh: Quruvchilar va eko-faollar o'rtasidagi diskurs nisbati konfliktli (oppozitsion) bo'lib, kompensatsiyaga asoslangan yashil ritorika hamda uni rad etuvchi normativ-axloqiy pozitsiya o'rtasidagi to'qnashuv asosiy vektorni tashkil etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "qurilish – rivojlanish – yashil muvozanat" uchligi hozirgi shahar diskursida ko'pincha soxta dixtomiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Quruvchilar va ayrim amaldorlar "kompensatsion ekish" hamda "qonuniylik"ni asos sifatida keltirayotgan bo'lsalar-da, ijtimoiy axborot makonidagi aksariyat javoblar ushbu yondashuvni simulyativ, ya'ni haqiqatga to'liq mos kelmaydigan deb baholamoqda.

Bundan tashqari, moratoriy siyosatining samaradorligi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinmoqda. Ko'plab postlarda daraxt kesishga oid arizalar rad etilayotgani qayd etilsa-da, real amaliyotda ayrim kesishlar davom etayotgani e'tirof etilgan.

Umuman olganda, tahlil Toshkent shahrida shaharsozlik siyosati va ekologik muhofaza diskursi o'rtasida muvozanatsizlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Quruvchilar va ularni qo'llab-quvvatlayotgan rasmiy aktorlar shaharni rivojlantirish hamda fuqarolarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini asosiy motivatsion omil sifatida ilgari surmoqda. Shu bilan birga, bu rivojlanish ba'zan ekologik qadriyatlar, havo sifati, bioxilma-xillik, mikroiqlim va jamoat manfaatlariga zid tarzda olib borilayotgani kuzatilgan.



Diskursiv dixtomiya, ya'ni "qurilish yoki yashillik" tanlovi, tahlil natijalariga ko'ra, "soxta tanlov" (false dichotomy) sifatida talqin etiladi. Aslida, bu ikki tamoyil bir-birini istisno etmaydi, balki integratsiyalashgan yondashuv asosida uyg'unlashtirilishi mumkin. Shu jihatdan, kompensatsiya va rekultivatsiya bo'yicha ilgari surilayotgan strategiyalarni yanada takomillashtirish, ularni yuzaki yoki formal yondashuvdan amaliy samaradorlik bosqichiga o'tkazish dolzarbdir.

Eko-faollar, bloggerlar va jamoatchilik tomonidan bildirilgan chiqishlar asosan "ekologik jinoyat", "tabiatga tajovuz", "shaffoflik yetishmasligi" va "ijtimoiy ishonchning pasayishi" kabi kodlar orqali ifoda etilgan. Bu esa jamoatchilikning o'zini shahar iqlim siyosatida faol ishtirokchi emas, balki chetda qolayotgan subyekt sifatida his qilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu faollik fuqarolik jamiyatining o'sib borayotganini ham ifodalaydi.

Davlat vakillari va quruvchilar tomonidan qo'llanilayotgan legitimatsiya strategiyalari — masalan, "ruxsatnoma mavjud", "kompensatsiya amalga oshiriladi", "xalq manfaatlar uchun qilinyapti" kabi ritorikalar — ijtimoiy va axloqiy jihatdan bahsli deb topilgan. Ayniqsa, moratoriy amal qilayotgan sharoitda daraxt kesilishi va bu harakatlarning "yashil PR" bilan oqlanishi ekologik ikkiyuzlamachilik sifatida qabul qilinmoqda.

Bu holat, uzoq muddatda, siyosiy va ijtimoiy ishonch tizimini zaiflashtirishi mumkin. Hajer (1995) ta'riflaganidek, bu jarayon "diskurs koalitsiyalari" va "diskursiv strategik pozitsiyalar" o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Shu bois, shaharsozlik siyosati va ekologik mas'uliyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish, ekologik muvozanatni tiklash hamda fuqarolik ishonchini mustahkamlash maqsadida quyidagi normativ, amaliy va strategik tavsiyalarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, shaharsozlik va ekologik boshqaruv sohasidagi normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish talab etiladi. Eng avvalo, ekologik shaffoflikni kuchaytirish lozim: daraxt kesishga oid ruxsatnomalar, qurilish loyihalarining ekologik ekspertiza xulosalari hamda rekultivatsiya bo'yicha qarorlar ijtimoiy faollikni rag'batlantirish maqsadida ochiq axborot portalida muntazam e'lon qilib borilishi kerak. Bu shaffoflik muhitini yaratish bilan birga, ishonch va javobgarlik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, fuqarolik ishtirokini institutsional darajaga ko'tarish zarur. Har bir urbanistik loyiha bo'yicha ekologik ekspertiza va jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiy huquqiy talab sifatida mustahkamlansa, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni yanada kuchaytiradi. Ayni paytda, amaldagi qonunchilikda bu jarayon ko'pincha tavsiya darajasida qolib ketmoqda, bu esa ekologik masalalarda ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Kodeksga tegishli qo'shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, yashil infratuzilmani buzgan shaxs yoki tashkilotlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni kuchaytirish, shuningdek, urbanistik loyihalarda ekologik baholash komponentini majburiy talab sifatida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Normativ asoslar bilan bir qatorda, real amaliy choralar orqali ekologik boshqaruvni kuchaytirish zarur. Birinchi navbatda, kompensatsiya (o'rni qoplash) tizimining sifat nazoratini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda keng qo'llanilayotgan "bir kesilgan daraxt – o'n ekilgan" modeli faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan baholanmoqda. Biroq, har bir ekilgan daraxtning yashovchanligi, turi va ekologik ahamiyati ham hisobga olinishi lozim.

Ikkinchidan, ekologik monitoring jarayonlarini raqamlashtirish tavsiya etiladi. Dronlar, GIS (geoinformatsion tizimlar) va mobil ilovalar orqali daraxtlar, yashil zonalar hamda urbanistik ta'sir hududlarini real vaqt rejimida kuzatish tizimini joriy etish zarur. Bu yondashuv mahalliy darajadagi jamoaviy nazoratni kuchaytiradi hamda sun'iy ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq manipulyatsiyalarni kamaytiradi.

Uchinchidan, moratoriy siyosatini real nazorat mexanizmlari bilan mustahkamlash talab etiladi. Amaldagi moratoriyalar faqat huquqiy hujjat shaklida emas, balki amaliy monitoring tizimi bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim. Aks holda, uni chetlab o'tish holatlari (masalan, daraxtni "o'z-o'zidan quritish") davom etishi mumkin.

Uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun ekologik boshqaruvda strategik darajadagi institutlar va siyosatlarni shakllantirish zarur. Eng avvalo, ekologik kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqish lozim. Davlat idoralari va mahalliy hokimiyat organlari o'z pozitsiyalarini ochiq, muntazam hamda mutaxassislar ishtirokida asoslab borishlari kerak. Bu nafaqat fuqarolik ishonchini tiklaydi, balki ijtimoiy dialogni mustahkamlaydi va atrof-muhitga oid masalalarni madaniyatli muhokama qilish muhitini yaratadi.

Shuningdek, mustaqil eko-tahliliy markazlar tashkil etish zarur. Ushbu markazlar qurilish ishlari boshlanishidan avval ekologik xavflarni baholovchi va mustaqil ekspertiza xulosalarini taqdim etuvchi platforma sifatida faoliyat yuritishi kerak. Ularning tavsiyalari majburiy kuchga ega bo'lmasligi mumkin, biroq ular rasmiy qarorlar shakllanishida ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Nihoyat, "yashil shahar" indikatorlarini ishlab chiqish va ularni muntazam monitoring qilish zarur. Toshkent shahrida yashil hududlar maydoni, CO₂ chiqindilari miqdori, bioxilma-xillik ko'rsatkichlari va mikroiklim o'zgarishlari bo'yicha aniq indikatorlar tizimi shakllantirilishi kerak. Ushbu indikatorlar asosida siyosiy va urbanistik qarorlar muvofiqlashtirilsa, ekologik boshqaruv tizimi barqarorlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot Toshkent shahrida shaharsozlik siyosati va ekologik mas'uliyat o'rtasidagi murakkab, ko'p qatlamli jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Mavjud urbanistik yondashuvlarda qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlarga e'tibor yuqori bo'lsa-da, ekologik barqarorlik, fuqarolik ishtiroki va yashil infratuzilma masalalarini yanada chuqurroq integratsiya etish zarurligi aniqlangan. Telegram, bloglar va ommaviy axborot vositalari materiallari tahlili fuqarolik jamiyati, eko-faollar va keng jamoatchilikning ushbu siyosiy-urbanistik jarayonlardagi faolligini, ularning ekologik masalalarga nisbatan ongli munosabatini namoyon etadi.

Siyosiy diskurs tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, quruvchilar va rasmiy aktorlar o'z faoliyatlarini "rivojlanish", "kompensatsiya" va "ruxsatnoma" kabi ritorikalar orqali asoslashga urinmoqda. Biroq, bu yondashuvlar ijtimoiy ishonchni mustahkamlash uchun yetarli emas. Shu bois, ekologik qadriyatlarni "estetik dekor" emas, balki hayotiy zarurat va strategik ustuvor yo'nalish sifatida ko'rish muhimdir.

Ushbu tadqiqot Toshkent shaharsozligi va ekologik siyosatidagi mavjud muammolar hamda diskursiv ziddiyatlarni aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, kelgusida chuqurroq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va strategik qarorlar ishlab chiqish uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlar belgilandi:

Ijtimoiy ekologiya yo'nalishi. Kelgusidagi tadqiqotlar shahar ekologiyasining ijtimoiy jihatlarini, xususan yashil infratuzilmaning notekis taqsimlanishini va past daromadli qatlamlarning ekologik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilishi lozim. Bu yondashuv ekologik adolat va urbanistik tenglik tamoyillarini siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga tatbiq etishga yordam beradi.

Mikroiqlim va ekologik monitoring. Daraxt qoplamasining mikroiqlimga, issiqlik orollari effektiga va havoning sifatiga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. GIS texnologiyalari, masofadan zondlash va meteorologik kuzatuvlar asosida olib boriladigan modellashirish ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi.

Diskursiv tahlil yo'nalishi. So'nggi yillarda "Yashil Toshkent", "barqaror rivojlanish" va "eko-modernizatsiya" kabi atamalar siyosiy va ijtimoiy maydonda faol qo'llanilmoqda. Ularning semantik mazmuni, legitimatsiya mexanizmlari hamda real ekologik harakatlar bilan uyg'unlik darajasi tizimli tahlil etilishi lozim.

Innovatsion ekologik yechimlar. Qurilish sohasida "yashil tomlar", biofilik dizayn va quyosh panellari kabi yechimlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar ushbu texnologiyalarning Toshkentdagi urbanistik loyihalarga joriy etilish darajasi, ularning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy qabul qilinishini o'rganishi lozim.

Huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash. Shahar ekologiyasini himoya qilishga oid qonunchilikdagi bo'shliqlar, xususan daraxt kesishga oid ruxsatnomalardagi zaifliklar va ijro tizimlarining samaradorligi tahlil etilishi kerak. Ekologik ekspertizani majburiylashtirish, ochiq hisobotlik va monitoring tizimlarini huquqiy asosga qo'yish muhim istiqboldir.

Fuqarolik ekologik madaniyatini rivojlantirish. Telegram kanallari, bloglar va ekologik faollar tomonidan olib borilayotgan axborot tarqatish, norozilik aksiyalari hamda jamoatchilik monitoringi yangi ekologik fuqarolik madaniyatining shakllanayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayonni ijtimoiy dinamika va madaniy o'zgarishlar kontekstida chuqur tahlil qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent shaharsozlik tajribasi — bu nafaqat bir shaharning urbanistik siyosati, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik mas'uliyat, modernizatsiya va fuqarolik ishtiroki o'rtasidagi muvozanatni ifodalovchi o'ziga xos modeldir. Tabiatni asrash masalasi ekologik, ijtimoiy va axloqiy jihatdan barqaror jamiyat qurishning ajralmas qismidir. Shu bois, shaharni rivojlantirish siyosati ekologik etika, shaffof boshqaruv va fuqarolik ishtirokiga tayangan holda olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beatley, T. (2000). *Green Urbanism: Learning from European Cities*. Island Press.
2. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101. <https://doi.org/10.1191/1478088706qp0630a>
3. Eraydin, A., & Tasan-Kok, T. (2013). Resilience thinking in urban planning. In A. Eraydin & T. Tasan-Kok (Eds.), *Resilience Thinking in Urban Planning* (pp. 1–12). Springer. <https://doi.org/10.1007/978-94-007-5476-8>
4. Hajer, M. A. (1995). *The Politics of Environmental Discourse: Ecological Modernization and the Policy Process*. Oxford University Press.
5. Harvey, D. (2008). The right to the city. *New Left Review*, 53, 23–40.
6. Jennings, V., Baptiste, A. K., Jelks, N. O., & Skeete, R. (2016). Urban green space and the pursuit of health equity in parts of the United States. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 14(2), 143. <https://doi.org/10.3390/ijerph14020143>
7. Kabisch, N., Qureshi, S., & Haase, D. (2017). Human–environment interactions in urban green spaces—A systematic review of contemporary issues and prospects for future research. *Environmental Impact Assessment Review*, 50, 25–34. <https://doi.org/10.1016/j.eiar.2014.08.007>
8. Ryu, H., & Han, S. S. (2021). Urban ecological transition in South Korea: Policy learning from green infrastructure planning in Seoul. *Cities*, 114, 103186. <https://doi.org/10.1016/j.cities.2021.103186>



9. Townsend, L., & Wallace, C. (2016). Social Media Research: A Guide to Ethics. University of Aberdeen. https://www.gla.ac.uk/media/Media_487729_smxx.pdf
10. UN-Habitat. (2020). World Cities Report 2020: The Value of Sustainable Urbanization. United Nations Human Settlements Programme. <https://unhabitat.org/world-cities-report>
11. Wolch, J. R., Byrne, J., & Newell, J. P. (2014). Urban green space, public health, and environmental justice: The challenge of making cities 'just green enough'. Landscape and Urban Planning, 125, 234–244. <https://doi.org/10.1016/j.landurbplan.2014.01.017>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>